

RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI

FILOLOGIYA VA TARIX FAKULTETI

“IJTIMOIY-SIYOSIY FANLAR” KAFEDRASI

M. K. Rashidova, J.Sh.Elmurotov, S.Mamatqulov

**“FALSAFA” FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMNI BAJARISH UCHUN
USLUBIY KO'RSATMA**

Toshkent-2024

Mazkur uslubiy ko'rsatma bakalavriat ta'lim talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda Falsafa (mantiq, etika, estetika, korrupsiya) fanidan mustaqil ta'lim ishlari mavzulari, mustaqil ta'lim ishlarini tayorlashda foydalanishi mumkin bo'lgan ilg'or pedagogik texnologiyalar, shuningdek, mavzulariga doir adabiyotlar ro'yxati hamda internet saytlari keltirilgan

Tuzuvchilar:

f.f.n., dotsent M.K.Rashidova, f.f.n., dotsent J.Sh.Elmurotov, f.f.n., dotsent S.Mamatqulov

Taqrizchi:

O.R.Musayev - Renessans talim univeristeti "Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedراس professori, falsafa fanlari doktori

Filologiya va tarix fakulteti "Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedrasining 2024-yil "23" oktabrdagi 6-sonli majlisida muhokama qilingan.

Uslubiy ko'rsatma Renessans ta'lim universiteti Kengashining 2024-yil "26" oktabrdagi 2-sonli qaroriga muvofiq o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.

Kirish

Falsafa hamma davrlarda ham yuksak ahamiyat kasb etib kelgan fandır. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin yosh avlodni ahloqiy jihatdan yetuk, barkamol qilib tarbiyalash maqsadida ahloqshunoslik yangi jamiyatda tobora yuksak mavqega chiqib bormoqda. Chunki ahloq – ma’naviyatning o‘zagi, insof va adolat tuyg‘usidir. Barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarni hal etish imkoniyati inson shaxsini tarbiyalash orqali yaratilgan.

Mantiq fani talabalarni to‘g‘ri fikrlashning qonun qoidalari va mantiqiy shakllari bilan tanishtirish asosida , erkin fikr yurita oladigan barkamol insonlar etib tarbiyalash bilan birga ularda yangi turmush va tafakkur tarzini qaror toptirishda xizmat qiladigan fandır.

Axloq inson ruhiy kamolotining muhim mezonlaridan birini tashkil qiladi. U millat abadiyligini va mamlakat taraqqiyotini ta’minlashdagi ustuvor omil hisoblanadi. Shuning uchun ham birinchi Prezident I.Karimovning «Yuksak ma’naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi»¹ - deb ta’kidlaganligi bejiz emas. Axloqning ana shu muhim roli va ahamiyatidan kelib chiqqan holda, milliy-ma’naviy tiklanish, yoshlarni yuksak ma’naviyat sohibi va barkamol inson qilib tarbiyalash mustaqilligimiz sharoitida davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Ayniqsa, talabalarning milliy o‘z-o‘zini anglashlarida, millatparvarlik va vatanparvarlik tuyg‘ularining mustahkamlanishida mazkur kursning o‘qitilishi ijobiy rol o‘ynamoqda. Ularga e‘tiqod, iymon, halollik, poklik, mehr-shavqat kabi tuyg‘ularni shakllantirishga, o‘z millati va vatanining manfaatlarini tushunib yetishlariga yordam bermoqda.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, tarixiy xotira an’ana va qadriyatlarning tiklanishi munosabati bilan estetika fani oldida ham yangi vazifalar paydo bo‘lmoqda.

Estetika O‘zbekistonning mustaqillik sharofatida o‘quv-tarbiya vazifalaridan kelib chiqib o‘z masalalarini bayon qilmoqda. Estetika fani talabalarni shaxs sifatida ham, fuqarolik jamiyati a’zosi sifatida ham - har jihatdan go‘zallikka

¹ Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарк, 1998. Б. 7.

oshno, yuksak estetik did egasi qilib tarbiyalashga ulkan hissa qo'shishi bilan belgilanadi.

Mazkur fanlardan tuzilgan uslubiy ko'rsatma fan o'quv dasturi asosida tayyorlandi. Ushbu ko'rsatmani kelajakda to'ldirilgan va boyitilgan holda chop etish zaruriyatini hisobga olib sizlardan fikr va mulohazalaringizni kutamiz.

Uslubiy ko'rsatmada amaliy mashg'ulotlar uchun tuzilgan reja, mustaqil ishlash uchun mavzular nomi, har bir mavzuni o'rganish uchun qisqacha amaliy maslahatlar hamda tegishli adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Renessans Ta'lim Universitetida "Falsafa" fanidan mustaqil ta'limni bajarish bakalavriat ta'lim bosqichi 1-2-kurs talabalarining 1-2 semestrlarda olib boriladi.

Ushbu mustaqil ishni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma "Falsafa" fani o'quv dasturi va fan bo'yicha sillabusi asosida tayyorlandi.

Talabalar mashg'ulotlarga mustaqil tayyorlanishlarida quyidagi internet saytlaridan foydalanishlari mumkin:

1. "Xalq so'zi" gazetasi – www.info.XS.Uz.
2. "Tafakkur" jurnali www.tafakkur – inform.uz.
3. "Moziydan sado" jurnali – www.moziy dostlink. Net
4. www. Faylasuf. uz
5. www.press-servise.uz.
6. www.literature.uz
7. www.Ziyonet.uz.

Talaba mustaqil ishi (TMI) – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi.

Topshiriqlar puxta o'ylab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

Talabalar fani bo'yicha sillabusda mavjud bo'lgan mustaqil ta'lim mavzularini tanlab oladilar. Mustaqil ta'lim mavzulari semestr boshlanishidan fan o'qituvchisi tomonidan talabalarga taqdim etiladi. Tanlab olingan ish mavzusi bo'yicha talaba reja tuzadi va ushbu rejani fan o'qituvchisi bilan maslahatlashadi. Ishlab chiqilgan reja asosida talaba mustaqil ravishda vazifaga tayyorlanadi.

Talaba vazifaga tayyorlanish davomida og'zaki savol javobdan o'tkaziladi, mustaqil xulosa chiqarishi o'rganiladi va turli adabiyotlardan foydalanganlik xolati tekshiriladi.

Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning faoliyatini baholashda mavzuga talabaning mantiqiy to'g'ri yondashganiga asosiy e'tibor qaratiladi. Mustaqil ish tayyorlashda talabaning mavzu bo'yicha fanning eng so'nggi yangiliklari va statistik ma'lumotlardan foydalanganligiga alohida e'tibor beriladi.

O'quv fani bo'yicha mustaqil ish tayyorlash quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi²:

- O'quv predmeti dolzarb nazariy masalalari bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish, talaba tomonidan mavzuga ushbu olingan nazariy bilimlarni ijodiy qo'llash ko'nikmasini hosil qilish.
- Tanlangan kasbiy sohada milliy g'oya tamoyillarini amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatlari va muammolarini o'zlashtirish.
- Tanlangan mavzu bo'yicha har xil adabiy manbalarni (internet manbalari, davriy nashrlardagi ilmiy maqolalar va shu kabilar) o'rganish qobiliyatini takomillashtirish va ular natijalari asosida tanqidiy yondashgan tarzda mustaqil hamda bilimdon holda materialni ifoda etish, ishonchli xulosa va takliflar qilish.
- Yozma ko'rinishdagi ishlarni to'g'ri rasmiylashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Prezintatsiya Power point dasturi tayyorlanadi, mustaqil ishning asosiy qismini lo'nda va aniq nomiga ega savol va kichik savolchalar (qismchalar)ga bo'lib chiqish zarur.

Kirish qismida nazariy va amaliy jihatdan mavzuning dolzarbligi asoslanadi, maqsadlar shakllantiriladi va vazifalar belgilanadi.

Agarda prezintatsiya, mustaqil ish monografik (bitta manba va muallif referatlashtirilsa) ko'rinishda bo'lsa, kirish qismida:

- muallif haqida qisqacha ma'lumot (ilmiy darajasi, unvoni, uning mutaxassisligi, boshqa ishlari);
- mavzu manbasining qisqacha bayoni;
- ish maqsadi;
- rubrikasi;
- muallifning tutgan o'rni va boshqalar keltiriladi.

Prezintatsiya, mustaqil ishning *asosiy qismida* barcha muhim fikrlar aks ettirilishi zarur. Materialni ifoda etish tavsifiy xarakterga ega bo'lmasligi kerak. Mos ravishda xulosalari bo'lgan tahlil, shuningdek matn bilan uzviy bog'langan statistik materiallar tahlili bo'lmog'i lozim. Statistik ma'lumotlarni jadval holiga keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Statistik ma'lumotlar asosida diagrammalar,

²Қаранг: Ходиев Баходир Юнусович, Голиш Людмила Владимировна. Мустақил ўқув фаолиятини ташкил этиш усул ва воситалари (биринчи босқич талабаларига ёрдам тариқасида): Ўқув-услугий қўлланма –Т.: ТДИУ, 2010. –Б.97.

grafiklar, gistogrammalar qurish u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tushunarliroq ifoda etishga yordam beradi.

Prezintatsiya, mustaqil ishda keltiriladigan barcha *jadvallar, rasmlar nomlanishi va tartib raqami qo'yilishi kerak*. Ular tagiga ushbu statistik ma'lumotlar olingan *manbalar betlari* ham ko'rsatilgan holda qo'yilishi qat'iy talab etiladi. Matnda keltiriladigan *barcha raqamlar* tegishli *manbalarga havolalarni* keltirilishi talab etiladi. Matnda *iqtibos* keltirilsa yoki mualliflar ilmiy-tadqiqot ishlaridagi *xulosalar, qaydlar, mulohaza va fikrlardan* foydalanilgan holatda muqarrar ravishda *havolalar bo'lishi lozim*.

Xulosa tanlangan mavzuni o'rganish natijasida talaba qilgan xulosalarni o'z ichiga oladi, shunigdek, hal etilmagan va kelgusida hal etilishi talab etiladigan savollarga bag'ishlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ma'lum bir tartib asosida tuziladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari;
2. Rahbariy adabiyotlar Prezident asarlari;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari;
4. O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari;
5. Me'yoriy aktlar, ko'rsatmalar;
6. Davriy nashrlarda chop etilgan kitoblar, darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, maqolalar.

Manbalar bibliografik qaydida quyidagilar ko'rsatiladi: muallif ismi va sharifi, kitob nomi, chop etilgan manzilgohi, nashriyot nomi va chop etilgan yili. Agarda maqola jurnal (gazeta)da chop etilgan bo'lsa, jurnal(gazeta) nomi, tartib raqami va yili, beti keltiriladi.

Mustaqil ish ravon tilda aniq yozilgan bo'lishi va jalb etadigan ko'rinishga ega bo'lmog'i lozim. So'zlar qisqartirilishiga, faqat umumiy qabul qilinganlardan tashqari, shuningdek, xatoliklarga, tushunarsizliklarga, stilistik tafovutlarga yo'l qo'yilmaydi.

Joriy nazoratda talabaning dars paytida o'tilgan materiallarni o'zlashtirish va uyga berilgan topshiriqlarni bajarishdagi faolligi, bajarish saviyasi va o'zlashtirish darajasi e'tiborga olinadi.

Mustaqil ishning hajmi 11-12 betdan iborat bo'lishi lozim.

Mustaqil ish quyidagilardan:

- 1) titul varag'ini to'g'ri rasmiylashtirish;

- 2) mavzu rejasi;
- 3) kirish;
- 4) manbalarga havolalar keltirilgan savol va savolchalarga (qismlarga) bo'lingan matn ifodasi;
- 5) xulosa;
- 6) foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topadi.

MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

1-Mavzu: Dunyoqarashning mohiyati, tuzilishi va asosiy funksiyalari.

Fanning predmeti, mazmun va mohiyati. Dunyoqarashning mohiyati. Dunyoqarashda shaxsning roli. Dunyoqarashning tuzilishi. Dunyoqarashning tarixiy shakllari. Mif dastlabki dunyoqarash sifatida Diniy dunyoqarash. Dinning asosiy funksiyalari. Dinning asosiy ildizlari. Dinga nisbatan sotsiologik yondoshuv. Diniy e'tiqodlarning tarixiy shakllari (feteshizm, animizm, totemizm, magiya) Falsafa dunyoqarash shakli sifatida. Dunyoqarashning mohiyati, tuzilishi va asosiy funksiyalari. Dunyoni falsafiy idrok etishning o'ziga xos xususiyati.

2- mavzu: Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo'lishi..

Qadimgi Sharq falsafasi vujudga kelishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlari. Qadimgi Sharqda shakllangan falsafa insoniyatning ilm, fan, ma'naviy taraqqiyotining debochasi hisoblanadi. Falsafiy tafakkur Sharqda ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatidagi mifologiya negizida vujudga kelgan. G'arb va Sharq falsafasi sinfiy jamiyat va davlat paydo bo'lishi bilan ijtimoiy ong shakli sifatida vujudga kelgan. Sharqda o'z tafakkur uslubida bilimlarni ifodalash va o'zlashtirishning o'z mexanizmlari va shakllari, bilim va haqiqatga eltuvchi yo'lni yorituvchi o'z mo'ljallari mavjud. Sharq ta'limotlari va tafakkur uslubini Sharq amaliyoti va tajribasidan olingan o'ziga xos usullar va metodlar yordamida tushunish va ichdan anglab yetish mumkin. Misr va Bobilda olam va odamning paydo bo'lishi haqidagi mifologik tasavvurlarning shakllanishi. Qadimgi Hindistonda olam va odamning kelib chiqishi, ularning o'zaro munosabati borasidagi falsafiy qarashlarning rivojlanishi.

3- mavzu: Ilk o'rta asr Sharq falsafasi va uyg'onish davri.

Arab-musulmon sivilizatsiyasi va islom falsafasining vujudga kelishi. Islom tamaddunida diniy va dunyoviy ilmlarning o'zaro uyg'unlikdagi taraqqiyoti (Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abubakr ar-Roziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu ali Ibn Sinolarning tabiiy-ilmiy, ijtimoiy falsafiy qarashlari). Islomiy ilmlar rivojida Xuroson va Movarounnahrdan yetishib chiqqan olimlar

hissasi. Ilk o'rta asr Sharq falsafasi va uyg'onish davri. Ilk o'rta asrda tasavvuf va islom ilohiyotshunoslik maktablari ta'limotlari.

4- mavzu: O'rta asr Sharq falsafasi va uyg'onish davri xususiyatlari.

Temuriylar sulolasi davri. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy falsafasi. Temuriylar davrida tabiiy-ilmiy bilimlar taraqqiyoti (Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchilarning tabiatshunoslik fanlariga qo'shgan hissasi).

5- mavzu: Yangi davr Sharq tasavvufi

Yangi davr Sharq tasavvufi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg'or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar. Sharq istilosi bilan bog'liq uyg'onish harakatlari, osiyotsentrizm, panturkizm, panislomizm, ma'rifatparvarlik va jadidchilik ta'limotlari. O'zbekistonda falsafiy fikrlar rivoji. O'zbekistonda ajdodlar me'rosini tiklash va ularni jahonda keng ommalashtirish borasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati.

6- mavzu: Falsafa va tabiiy ilmiy fanlarda borliqning mohiyatiga oid konsepsiyalar.

Borliq falsafaning predmeti. Ontologiya tushunchasi. Borliq kategoriyasi. Falsafa tarixida borliq muammosi. Borliq masalasida falsafa va fan sintezi. Borliq va mavjudlik. Borliq va yo'qlik dialektikasi. Borliqning shakllari:tabiat borlig'ini falsafiy tushunish. Inson borliqning o'ziga xos xususiyatlari. Ma'naviy borliq: individuallashtirilgan va ob'ektivlashtirilgan borliq. Ijtimoiy borliq. Olamning paydo bo'lishi va evolyusiyasi. Materiya shakllarining turli tumanligi. Materiyaning tashkil topish darajalari. Relyativistik kosmologiya.

Makon va vaqt borliqning fundamental shakllari. Falsafa tarixi va tabiatshunoslikda makon va zamonga nisbatan yondashuvlarning rivojlanishi. Makon va vaqtning substansional hamda relyatsion konsepsiyalari Makon va vaqtning mikro, makro va megaolamdagi xususiyatlari. Nisbiylik nazariyasi. Makonning ko'p o'lchovligi. Ijtimoiy makon. Ijtimoiy vaqt. Makon va vaqtning harakatdagi materiyaga bog'liqligi.

7- mavzu: Rivojlanishning umumiy qonunlari va kategoriyalari.

Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyusiyasi. Rivojlanish va o'zgarish tushunchasi. Taraqqiyot tushunchasi. Taraqqiyotning turlari. Qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari: voqelik qonunlari, fan qonunlari, bazis va lokal

qonunlar, falsafa qonunlari. Falsafiy qonunlarining asosiy shakllari. Qarama-qarshilik va ziddiyat. Qarama-qarshiliklarning tasnifi. Ziddiyatlarning tasnifi. Ayniyat va tafovut. Ziddiyatlarning turlari. Miqdor o'zgarishlari va sifat o'zgarishlari dialektikasi. Sifat, miqdor, me'yor, xossa, sakrash. Sakrashning turlari. Inkorni-inkor. Inkorni inkorda vorisiylik.

Kategoriya tushunchasi va ularning turlar: fan kategoriyalari. xususiy ilmiy kategoriyalar, falsafa kategoriyalari. Falsafa tarixida kategoriyalarga turli munosabatlar.. Dialektikaning asosiy tushunchalari – narsa, aloqa. Aloqalarning tasnifi.

Munosabatdosh kategoriyalarning tasnifi. Sistema, element, struktura. Sistemalarning o'ziga xos xususiyatlari. Ayrimlik, yakkalik, xususiylik, umumiylik. Butun va qism. Yaxlitlik antinomialari. Yaxlitlik tiplari. Mazmun va shakl. Shakl narsaning g'oyasi. Mohiyat va hodisa. Mohiyat va mavjudlik. Mohiyat va hodisa dialektikasi.

Sabab va oqibat. Sabab tushunchasi. Sabab va oqibat dialektikasi. Bahona va shart. Sinergetika sababiyat haqida. Zaruriyat va tasodif. Zaruriyat va tasodif dialektikasi. Imkoniyat va voqelik. Imkoniyatlarning turlari.

8- mavzu: Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy, intuitiv, bilish darajalarining o'zaro aloqasi va farqi.

Hissiy bilish, odatda, insonning his qilishi, sezgi a'zolari orqali predmet-hodisalar, ularning tashqi tomon, belgi va xususiyatlarini bevosita idrok qilish. Bu deyarli barcha tirik mavjudotga xos.

Mantiqiy bilish insonning predmet-hodisalarni tafakkur orqali umumlashtirib, mavhumlashtirib va konkretlashtirib, fikrda bilishidir.

Intuitiv bilish hech bir bevosita hissiy idroksiz va mantiqiy muhokamasiz biror yangi tasavvur yoki fikrning birdaniga, kutilmaganda tug'ilishidir. Bilish jarayoniga oid yondashuvlar tasnifi: otpimizm, skeptitsizm va agnostitsizmning mohiyati. Bilimning asosiy turlari va shakllari. Bilishda sub'ekt va ob'ektning o'zaro aloqasi. Bilish faoliyat turi sifatida. Hissiy va aqliy bilish darajalari.

9- mavzu: Jamiyat taraqqiyotida tarixning mazmuni, yo'nalishlari va konsepsiyalari.

Jamiyat haqidagi falsafiy ta'limotlar tarixi. Jamiyatning mazmun-mohiyati va kelib chiqish sabablari. Jamiyatning omillariga doir bir qator qarashlar va konsepsiyalar yuzaga kelgan. Jamiyatning kelib chiqishiga oid teologik, idealistik, materialistik konsepsiyalar mavjud. Ushbu konsepsiyalar birgalikda uning mohiyatiga kirib borish imkonini beradi.

10-mavzu: Ommaviy madaniyatning shakllanish tarixi va uning turlari: aksilmadaniyat, submadaniyat, populyar madaniyat, ekran madaniyati

“Ommaviy madaniyat”ning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri. Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik.«Ommaviy madaniyat» G'arb dunyosida o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni G'arbda «populyar» yoki qisqartirilgan holda, «pop-kultura» (ya'ni «ommaviy madaniyat») deb atashadi. Garchi «madaniyat» deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-ma'nosiga, maqsad-niyatiga ko'ra «ommaviy madaniyat» chinakam madaniyatning kushandasidir. Albatta, xalqimiz, jumladan, yosh avlod g'arb fan-texnikasi, madaniyati, adabiyotu san'atining ilg'or jihatlarini inkor etmaydi. Biroq g'arbdagi taraqqiyparvar ziyolilarning o'zi «g'arbning muammosi» sifatida baholayotgan «ommaviy madaniyat»ning ma'naviy-axloqiy tubanliklarini yoshlarimiz qancha tez anglasa, shuncha yaxshi.

Submadaniyat - bu ma'lum bir guruh, jamoa qadriyatlari tizimi. Ekran madaniyatining paydo bo'lishi kinematografiyaning paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. O'ttiz yil davomida ovozning yo'qligi, soqovlik ekran san'atining o'ziga xos xususiyati hisoblangan. Kinematografiya "buyuk soqov" deb atala boshlandi. Ovozsiz filmlarning gullab-yashnagan davri 1920-yillar edi, ular ishlay boshlagan. Jim kinoning asosiy xususiyati aktyorlikning plastik ifodaliligidir, chunki tasvirni faqat imo-ishora, harakat va mimika bilan yaratish kerak edi. Ovozli filmlar davrini 1928-yilda chiqqan Amerikaning "Jazz xonandasi" filmi ochdi. Ovozsiz filmlardagi ko'plab taniqli shaxslar ovozning kiritilishiga keskin qarshilik ko'rsatdilar. Kino ommaviy madaniyatning paydo bo'lishiga katta hissa qo'shdi. Ekran madaniyati rivojlanishining navbatdagi bosqichi televidenie va kompyuterlarning paydo bo'lishi bo'lgan. 20-asrning ikkinchi yarmida kompyuter inqilobi sodir bo'ldi. Kompyuter texnikasi jamiyat hayotining barcha jabhalarida: ishlab chiqarishda, boshqaruv tizimida, ta'lim sohasida keng tarqaldi. Axborotlashtirish va kompyuterlashtirish jarayonlari madaniyat rivojiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

11-mavzu : Insonni tushunishga dualizm va monizm nuqtai nazaridan yondashuv.

Inson falsafiy muammo sifatida. Falsafa tarixida insonning kelib chiqishi haqidagi ta'limotlar. Insonni falsafiy tushunishning o'ziga xos xususiyati. Insonning ko'p o'lchovligi. Insonni tushunishda dualizm(*odamzot, bir tomondan, moddiy organizmdan, boshqa tomondan esa mustaqil mohiyat sanaladigan va bu organizm iboshqaradigan nomoddiy jondan tashkil topgan mavjudot sifatida qaraladi*) va monizm(*inson ruhiyati, uning tuyg'ulari, fikrlari,emotsiyalari va kayfiyati inson organizmining tarkibiy qismi sanalgan bosh miya nerv hujayralari hayot faoliyatining mahsulidan o'zga narsa emas*) Insonga introvertiv va ekstrovertiv yondashuvlar. Insonni falsafiy nuqtai nazardan o'rganishning zarurati.

12-mavzu: Qadriyat tushunchasining ma'nosi va uning umumiy tavsifi.

Qadriyat tushunchasi uning mazmun mohiyati. Milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlar.

Qadriyat tushunchasi va uning umumiy tavsifi. Qadriyatlarning tabiati va mohiyatini tushunishga nisbatan yondoshuvlar: naturalistik psixologizm, personalistik optimizm, aksiologik transsendentalizm, madaniy tarixiy relyativizm, qadriyatlarning sotsiologik konsepsiyasi. Qadriyat kategoriyasining mazmuni: qadriyatning ijtimoiy mohiyati. Qadriyatning funksional ahamiyati. Qadriyatning shaxsga doir mazmuni. Qadriyatlar va baholar. Baholashning mohiyati. Baholash strukturasi. Baholash predmeti. Baholash sub'ekti. Baholash asosi. Ehtiyojlar va qadriyatlar. Qadriyatlarning turlari: moddiy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy siyosiy qadriyatlar, individual yoki shaxsga doir qadriyatlar. Jamiyat va inson hayotida qadriyatlarning roli. Oliy qadriyatlar. Sog'lik va erkinlik qadriyat sifatida. Bilim qadriyat sifatida. Shaxsning qadriyatlarga munosabati. Qadriyatlar ierarxiyasi bilan izohlanadi.

13-mavzu: Qadriyat nazariyasining shakllanish tarixi

Turli falsafiy davrlar va ularda mavjud bo'lgan falsafiy maktablar qadriyatlar tushunchasining shakllanishiga o'z hissasini qo'shgan. Masalan, O'rta asrlarda g'arbda ham sharqda ham qadriyatlar diniy xususiyat kasb etgan va ilohiy mohiyat bilan bog'langan. Uyg'onish davrida A.Navoiy, A.Jomiy, Rumi, Leonardo da Vinche ijodida insonparvarlik va hurfikrlilik qadriyatlari birinchi o'ringa chiqqan. Jumladan A.Navoiyning odil jamiyat qurish haqidagi g'oyasida umuminsoniy

qadriyatlar tizimi, komil inson ta'limotida esa eng yetuk inson qiyofasiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ifodalangan.

Yangi davrda qadriyatlar haqidagi ta'limotga nisbatan yondashuvlar ratsionalizm nuqtai nazaridan tavsiflana boshlanganki, bu hol fanning rivojlanishi va yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi bilan izohlanadi.

14-mavzu: Etikaning mohiyati va ahamiyati.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi bilan axloqshunoslik yangijamiatda yuksak mavqeni egallashi. Axloqshunoslikda milliy g'oya va mustaqillik mafkurasiga e'tiborni kuchaytirish. Chunki zamonaviy komil inson an'anaviy axloqiy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan yangicha mafkuramizni o'zida mujassam etgan, milliy g'oyani o'z ruhiy olamiga singdira oladigan yetuk shaxs bo'lmog'i lozim. Uning qalbida axloq mafkuraviylikni va mafkura axloqiylikni uyg'unlashtirgan ma'naviy hodisalarga aylanmog'i kerakligi. Axloqshunoslikning hozirgi kunda umumjahoniy global muammolarni xal qilishdek vazifasi borligidan kelib chiqib savol yoritiladi.

15-mavzu: Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik.

Yevropa va Osiyo xalqlari axloqidagi umumiylik va farqli jihatlar. Sharq mamlakatlari xalqlarining axloqi: o'zaro hurmat; sabr-toqat; yuzxotirchilik; andishalilik; muruvvatlilik; sahovatpeshalik. G'arb xalqlari axloqidagi xususiyatlar: cho'rtkesarlik; qatiyatlilik, individualizm, egotsentrizm, kosmopolitizm. «Ommaviy madaniyat» millat va xalq tanlamaydi. Globallashuvning eng dolzarb bolgan madaniyatlararo munosabatlardagi bu tendensiyalari bizning davrimizda ziddiyat ko'rinishini kasb etmoqda.

16-mavzu: Siyosatda professional etika va yangi axloq siyosati.

Professional etika fanini axloq tashkil qiladi. Axloq va siyosatning bir butunligi. Axloq ijtimoiy hodisa bo'lib, insoniyat jamiyati vujudga kelishi bilan bir vaqtda jamoalar bilan shaxslar o'rtasidagi ehtiyoj va manfaatlarga xizmat qiluvchi ijtimoiy munosabatlar ta'sirida vujudga kelgan. Ma'naviyatni xarakterga keltiruvchi kuch, uning ijodkori shaxs ma'naviyati hisoblanadi.

17-mavzu: Olamni virtual va vizual estetik idrok etishning farqlari.

Xalqaro global tarmoq internetning paydo bo'lishi uning o'sib kelayotgan yosh avlodga axloqiy va estetik tasiri. Internetdan foydalanish madaniyati uning

asosida yoshlar dunyoqarashidagi asosiy o'zgarishlar. Kompyuter va texnika vositalaridan foydalanish madaniyati. Estetik dunyoqarashni shakllantirishda texnikaning o'rni.

18-mavzu: Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot jarayonlarining mohiyati.

Globallashuv – yangi falsafiy mavzu. Globallashuv xodisasi. Globalistika. Global jarayonlarning kurtaklari. Fundamental globallashuv. Serqirra globallashuv. Global muammolar globallashuvning oqibati sifatida. Ijtimoiy rivojlanishning jadallashuvida global tendensiyalarni anglashning ahamiyati. Texnooptimizm. Texnopessimizm. Ekopessimizm. Global muammolarni hal qilishda falsafaning roli. Global muammolarning mohiyati. Muammolarning turli darajalari: :xususiy, mahalliy, mintaqaviy va milliy muammolar. Globallik mezonlari. Global muammolarning klassifikatsiyasi. Asosiy global muammolar tizimi: demografik tizim, ta'lim muammosi, sog'liqni saqlash muammosi, oziq ovqat muammosi, iqtisodiy rivojlanishning notekisligi, energetika va xom ashyo resurslari, urush va tinchlik muammosi. Global ongni shakllantirish zarurati. Xalqaro kuchlarning birlashuvi. Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar. Axborot inqilobi.

19- mavzu: Barqaror taraqqiyotni ta'minlashda globallashuvning ijobiy va salbiy yo'nalishlari.

Internet tarmog'ini tartibga solish muhim muammodir. Internetning global xususiyatini hisobga olgan holda bu vazifani faqat xalqaro hamkorlik orqali amalga oshirish mumkin. Internetning jamiyatdagi siyosiy jarayonlarga ta'siri. Salbiy ijtimoiy oqibatlarning paydo bo'lishi, mavjudligi barchaga ayon. Internet makonida kiber ijtimoiylashuvni belgilaydi.

20- mavzu: Global muammolarning mezonlari va darajalari.

Global muammolarning tasnifi. Global muammolarning keltirilgan mezonlari va o'ziga xos xususiyatlari .mezonlardan tashqari ba'zan global muammolarning boshqa bir qator xususiyatlari ham ko'rsatiladi. energiya, yonilg'i, chuchuk suv, xom ashyo resurslari, ekologik muammolar, demografiya muammosi, sog'liqni saqlash, ta'lim, xalqaro terrorizm tahdidi ma'naviyat masalalari va shu kabilardir.

21- mavzu: Pandemiya - XXI asrning global muammosi va uning oqibatlari

XXI asrning 20-yili insoniyatni ana shunday ko‘rinmas yovga ro‘baro‘ qildi. “COVID-19” deb ataganimiz bu baloi ofat nafaqat immunitetimiz, balki irodamiz, sabr-matnatimiz va hatto tafakkurimizni ham sinovdan o‘tkazmoqda. Ekologik halokat, iqlim o‘zgarishlari, qashshoqlik, chuchuk suv tanqisligi, zaxiralar kamayishi kabi global muammolar har yili BMT minbarlaridan turib aytiladi. Koronavirusning salbiy ta’siri deyarli hech bir sohani chetlab o‘tgani yo‘q.

22- mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro qonunlar va qarorlarning O‘zbekistonda ratifikatsiya qilishning ahamiyati, iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiyhuquqiy mexanizmlari

Korrupsiya (*lot. corrumpō* — „buzilish“, „aynish“) biror mansabdor shaxsning qonunchilikka va axloqqa zid ravishda o‘zining boshqaruv vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlari maqsadida foyda olishidir. Bu tushuncha dunyoning ko‘plab davlatlarida og‘ir jinoyat hisoblanadi. Korupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dunyo tajribasi. Mamlakatimizda korupsiyani oldini olish uchun olib borilayotgan islohatlar. O‘zbekiston Respublikasi korupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunning mazmun mohiyati.

23- mavzu: Mantiq tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fan sohasi sifatida.

Mantiq ilmining asosiy masalalari va ularni tadqiq etish yo‘nalishlari. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari. Formal mantiqning predmeti va strukturasi. Mantiq ilmining fanlar tizimidagi o‘rni. Fanning rivojlanish bosqichlari.

24- mavzu: Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari.

Tafakkur uch xil: *tushuncha*, *hukm* va *xulosa chiqarish* shaklida mavjud. Tushuncha, hukm va xulosa chiqarish tafakkurning universal shakllari, uning asosiy strukturaviy elementlari hisoblanadi. Mantiqiy qonunlar – inson tafakkuriga xos bo‘lgan, inson tafakkurida turli fikr, mulohaza, muhokamalar munosabatidagina amal qiladigan qonunlardir.

Ayniyat qonuni – har bir fikr, muhokama aniq, ravshan bo‘lishini o‘zida ifodalaydigan mantiqiy qonun. Ziddiyat qonuni – ziddiyatga yo‘l qo‘ymaslikni talab etuvchi, fikriy ziddiyatning oldini olishga qaratilgan mantiqiy qonun.

Uchinchisi istisno qonuni – tushunchaning ikki zid munosabatini ifodalaydigan mantiqiy qonun. Yetarli asos qonuni – fikrlashning isbotli, ishonarli bo‘lishini talab etuvchi mantiqiy qonun.

25- mavzu: Tushuncha - predmetlarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi mantiqiy shakl.

Belgilar. Har bir predmet olamdagi boshqa predmetlar bilan (bevosita yoki bilvosita) aloqada bo‘lganligi uchun kup belgilarga ega. Individual, yakkalik belgilar, umumiy belgilar, muhim belgilar, nomuhim belgilari mavjud. Muhim belgilari predmetning mohiyatini belgilaydi. Nomuhim belgilari predmetning mohiyatini tashkil kilmaydi.

26- mavzu: Hukmning tarkibi va xususiyatlari.

Hukm tafakkur shakli sifatida. Hukmning tarkibi va asosiy xususiyatlari. Hukm va gap. Oddiy va murakkab hukmlar.

Oddiy hukm tarkibi. Oddiy hukmlarning predikat mazmuni, mikdori, sifati bo‘yicha turlari. Ajratib ko‘rsatuvchi va istisno etuvchi hukmlar. Hukmlardagi terminlar hajmini aniqlash. *Murakkab hukm*, uning turlari. Murakkab hukmlarni hosil qiluvchi mantiqiy bog‘lamalar. Biriktiruvchi (kon’yunktiv) hukmlar. Ayiruvchi (diz’yunktiv) hukmlar.

Shartli (implikativ) hukmlar. Yetarli va zaruriy shart tushunchalari. Ekvivalent hukmlar. Murakkab hukmlarning chin bo‘lish shartlari. Murakkab hukmlarni mulohazalar mantig‘i tilida ifodalash: formulalar hosil qilish va jadval tuzish.

Modallik turlari va modallik hukmlari. Mantiqiy va ontologik modalliklar. Aletik modallikning asosiy kategoriyalari: voqelik, zaruriylik, tasodifiylik. Modallik hukmlarining bilishdagi ahamiyati.

Hukmlar o‘rtasidagi munosabatlar. Sotishadigan va sotishmaydigan hukmlar. Sig‘ishadigan hukmlar o‘rtasidagi munosabatlar: qarama-qarshilik, mantiqiy bo‘ysunish, qisman moslik (subkontrarlik). Sig‘ishmaydigan hukmlar o‘rtasidagi munosabatlar: zidlik (kontradiktorlik), qarama - qarshilik (kontrarlik)."Mantiqiy kvadrat" tushunchasi va sxemasi.

27- mavzu: Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi

Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi. Xulosa chiqarishning tuzilishi: asoslar, xulosa, asoslardan xulosaga mantiqan o‘tish (xulosalash). Mantiqan kelib chikish tushunchasi. Mantiqan zaruriy va extimoliy (to‘g‘riga o‘xshash) xulosa chiqarishlar. Xulosa chiqarish turlari: deduktiv xulosa chiqarish,

induktiv xulosa chiqarish, analogiya.

A. *Deduktiv xulosa chiqarish*. Deduktiv xulosa chiqarish tushunchasi. Deduktiv xulosa chiqarishda xulosaning asoslardan mantiqan kelib chikishining zaruriyligi. Xulosa chiqarish qoidalari tushunchasi. Hukmlarning sub'ekt — predikatli strukturasi hamda hukmlarning o'zaro mantiqiy bog'lanishlariga asoslangan xulosa chiqarishlar.

Deduktiv xulosa chiqarishning turli xil shakllari. Qat'iy hukmlardan xulosa chiqarish. Hukmlarni o'zgartirish orqali xulosa chiqarish (bevosita xulosa chiqarish): aylantirish, almashtirish, predikatga qarama-qarshi qo'yish. "Mantiqiy kvadrat" bo'yicha xulosa chiqarish.

Qat'iy sillogizm tarkibi. Sillogizmning aksiomasi va umumiy qoidalari. Sillogizm figuralari va moduslari. Figuralarning maxsus qoidalari. Qisqartirilgan sillogizm (entimema). Entimemadan to'la sillogizmni tiklash. Murakkab sillogizm (polisillogizm) va qisqartirilgan murakkab sillogizmlar (sorit va epixeyrema).

Murakkab hukmlar yordamida sillogistik xulosa chiqarish. Shartli va ayiruvchi xulosa chiqarishlar, ularning moduslari. Shartli - ayiruvchi (lemmatik) xulosa chiqarish: konstruktiv va destruktiv dilemmalar.

28- mavzu: Dalillash va ishonch-e'tiqodning shakllanish jarayoni.

Xato fikrlar predmetlarning real aloqalari va munosabatlarini buzib ko'rsatadi. Bilish jarayonida har bir fikrni to'g'ri qurishga erishish, uning chinligini dalillar bilan ko'rsata olish, xato fikrlarni esa rad qila bilish muhim ahamiyatga ega.

Fikrning chin yoki xatoligini ko'rsatish uchun uni hodisaning (faktning) o'zi bilan solishtirish mumkin. Bilish jarayonida natijalarning chin yoki xatoligi ularni ilgari vujudga kelgan bilimlar bilan bog'lash orqali aniqlanadi. Buni amalga oshirishning mantiqiy usuli asoslashdir.

Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan, chinligi asoslangan fikr yuksak ishonch kuchiga ega bo'ladi. Kishilarda ishonch-e'tiqodni shakllantiradi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo'lgan e'tiqodni yaratishdan iborat. Asoslash ishonch-e'tiqodni shakllantirish vositasidir.

29- mavzu: O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobida rivojlanish modeli va Uchinchi renessans tushunchalari.

Uchinchi renessans poydevorini yaratish bugungi kundagi islohotlar va yangilanishlarning eng ustuvor yo‘nalishi va maqsad-muddaolarini yaxlit ifodalaydigan ulug‘vor g‘oyadir. *“Yangi“ degan so‘zning biz uchun alohida ahamiyati bor.* Uchinchi renessans poydevorini yaratish yangi O‘zbekiston strategiyasida alohida o‘rin egallaydi.

30- mavzu: Amaliy loyihalar: “Mening oilam – mening baxtim”; “Ustozim – hayotim chirog‘i”; “Mening mahallam – mening faxrim”; “Mahallamning olim va ziyoli insonlari”; “Mening hayot falsafam”. Mavzulari bo‘yicha (multimediali taqdimotlar yaratish).

**Мустақил таълим учун уқув-услугий адабиётлар ва элктрон
таълим ресуслари
РЎЙХАТИ
Asosiy adabiyotlar**

1. Davronov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sulstonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019 .
2. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.
3. Z.E.Markaev, S.I.Bekchanov, M.Yu.Aytboev. Falsafa. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent. 2019.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma’nfatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. Halqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. II-jild. Toshkent.: O‘zbekiston. 2019.
- Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. III-jild. Toshkent.: O‘zbekiston. 2019.
- Muhammadjonova L.A. L.A. Abdulla Sher, Shodimetova G. Axloq falsafasi. – Toshkent: Vneshinvestprom, 2023
6. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. – T.:O‘zbekiston, 2014.
7. Ўзбекистоннинг коррупцияга карши кураш стратегияси. / Алиев Б., Мухтаров А., Норов Т. ва бош. / Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДИУ, 2022.
8. Shermuhamedova N. Falsafa. – Toshkent: Idris Abdurauf Nashr, 2021

9. Исмоил Саифназаров. Янги Ўзбекистон: инсон қадри улуғланган юрт. - Т.: "ИЛМ-ЗИЁ-ЗАКОВАТ" МЧЖ, 2023. -209 б.
10. О'zbekiston falsafasi tarixi. Aliqulov X. mas'ul muharrir, mualliflar jamoasi. - Toshkent: Noshir, 2013 .
11. Sharipov M. Fayzixo'jaeva D. Mantiq. -Т.: Unversitet, 2007.

Axborot manbalari

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.faylasuf.uz
5. Estetika v dizayne. (www/rosdesign/com/design/estofdesignhtm)

Тарқатма материалнинг намунавий нусхаси

O‘zbekiston Respublikasida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta’lim tizimi orqali har bir sohada zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Bugungi kunda yurtimizda uzluksiz ta’lim tizimini jahon talablari asosida takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga olib chiqish, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mamlakatimizda ham ushbu yo‘nalishning davomi sifatida barcha sohalari qatori ilm-fan, san’at, adabiyot, ma’rifatga katta e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida belgilangan “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish”³ vazifalarini amalga oshirishda ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish..., 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida ta’limni innovatsion texnologiyalari asosida rivojlantirish, yangi paradigmalarini ishlab chiqish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturlari orqali o‘qitishning an’anaviy va zamonaviy usullaridan kompleks foydalanish hamda didaktik vositalarning integrativ imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayonini davlat ta’lim standartiga mos ravishda, innovatsion ta’lim texnologiyalari va axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish o‘qituvchilardan yuqori malakani talab qiladi

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. –Т., 2017. – Б.39.

Jahon ta'lim standartlariga javob beradigan kadrlar tayyorlash uchun oliy ta'lim sistemasida ta'lim sifatini keskin oshirish zarur. Shu maqsadda «Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida» 2019 yil 27 avgustdagi PF-5789-son Farmoni chiqarilgan Prezidentimizning farmonini bajarish uchun biz pedagoglar malaka oshirish kurslarida jahon standartlari asosida ta'lim berish metodikalarini chuqur o'rganishimiz lozim. Dars jarayonida an'anaviy usullardan tashqari noan'anaviy darslar bilan tadqiqot, izlanish mashg'ulotlari, seminarlar kabi darslar tashkil etiladi. Bunday mashg'ulotlarning mazmuni va mavzusi bevosita shaxs faoliyatiga yondashuv konsepsiyasi va tamoyillariga mos kelib, ular bola ichki dunyosi, tafakkuri va shaxsiy hayotiy tajribasini maksimal darajada faollashtirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda o'quv faoliyatiga rag'bat uyg'otish, uni bilim egallashga yo'naltirilsa, ular ta'limning shakl va usullari, shaxs bilimi, tajribasi va hissiyotlarining asosiy manbai sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot-izlanuvchilikka yo'naltirilgan mashg'ulotlar texnologiyasida markaziy o'rinni shaxsiy vaziyat egallaydi, u talabani imkon qadar ko'proq topshiriqlarni bajarishga jalb etib, individual yoki jamoa bo'lib topshiriqlarning javoblarini topishga undaydi.

Bunday mashg'ulotlarning asosiy maqsadlaridan biri – topshiriq sifatida qo'yilgan muammolarga talabani o'zi javob topishini ta'minlashdir. Talabani javoblari o'qituvchi yoki o'rtoqlarining javoblariga mutlaqo o'xshamasa-da, muammo yechimini shaxsan o'zi topa olganidan g'ururlana olishi muhimdir. An'anaviy ta'lim mohiyatiga ko'ra o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriq va savollar talabani o'qituvchi tanlagan, o'zi uchun esa mutlaqo notanish tarzda fikrlashga majbur qiladi.

Aksincha, o'qituvchi talabalar ko'z o'ngida topshiriqni shakllantirar ekan, ularni topqirlikka asoslangan qiziqarli yechimlar vositasida yechimini topishga undaydi. Bunday mashg'ulotlar qo'llaniladigan metodlar o'qituvchining bolalar bilan hamkorlik munosabatlariga, talabalarning o'z bilimlarini o'zlari mustaqil rivojlantirish, axborot va ilmiy ma'lumotlarga tanqidiy munosabatda bo'lishi, plyuralizm hamda o'zgarar fikriga hurmat bilan yondashish kabilarga asoslanadi.

Texnologiyalarning asosiy jihati ma'lumotlarni yetkazish va o'zlashtirishgina bo'lmay, balki talabalarda mashg'ulot jarayonida tadqiqot olib borish, izlanuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

FSMU - Bu texnologiyadan asosan talabalarga tanish bo'lgan (bir necha kun avval manba sifatida o'qitilgan) mavzuni takrorlash va u to'g'risidagi fikrlarni

umumlashtirish uchun foydalanish mumkin. Bu texnologiyada talabalar individual – yakka holda harakat qiladilar. Buning uchun talabalarga quyida keltirilgan misolidagi tarqatma material tarqatiladi.

1- jadval

Mavzu:	
<u>F</u> ikr	
<u>S</u> abab	
<u>M</u> isol	
<u>U</u> mumlashtirish	

O‘qituvchi ko‘rsatmasi bilan har bir talaba yakka tarzda jadvalni to‘ldira boshlaydi. Talabalar yoshini va aqliy imkoniyatlarini inobatga olgan holda jadvalning har bir qatori alohida-alohida tushuntirib o‘tiladi. Masalan:

F – Fikringizni bayon eting

S – Fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating

M – Fikringizga misol keltiring

U – Fikrlaringizni umumlashtiring, xulosalang

Texnologiya natijasi yozma yoki og‘zaki tartibda tekshirilishi mumkin. Texnologiyaning o‘ziga xosligi: talabalar o‘rtasida musobaqalashish ruhiyatini shakllantirish, shaxsning o‘zini ximoya qila olishi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishni shakllantirishga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalar talabalarning faol hayotiy munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Ularga o‘quv jarayonidagi yangi shakldagi intreaktiv usullar kiradi. Talabalar dars jarayonida mavzuni o‘zlashtirish uchun doira shaklida o‘tiradilar. Texnologiya “FSMU”bo‘lib, bu metodni o‘quv mashg‘ulotini o‘tkazish tartibi:

- o‘qituvchi har bir talabaga FSMU texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan qog‘oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to‘ldirishni iltimos qiladi;

- o‘qituvchi talabalar bilan bahs mavzusini belgilab oladi;

- yakka tartibdagi ish tugagach, talabalar kichik guruhlariga ajratiladi va o'qituvchi kichik guruhlariga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan katta qog'oz varaqlarini tarqatadi; - talabalar qay darajada bilim va ko'nikmalarga ega ekanlari aniqlanadi;

- kichik guruhlarda ishlash talablariga qat'iy amal qilinadi;
- bir-birini hurmat qilish;
- ta'limning ijtimoiy jihatlari e'tiborda bo'ladi va boshqalar.

Bunda pedagog:

- mashg'ulot maqsadini aniq tushuntiradi;
- jamoaning psixologik xususiyatlarini hisobga oladi;
- qo'llayotgan metodlarni o'zi puxta bilishi shart;
- eng asosiysi, pedagog muomala madaniyatiga e'tiborini qaratishi lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayonida psixologik-pedagogik aql-zakovat, kasb qobiliyati, pedagogik texnika uchligi pedagogning faoliyatida o'ta muhim ahamiyatga ega.

«FSMU» mantiqiy fikrlashga o'rgatuvchi texnologiyadan foydalanish jarayonining bosqichlari

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, baxs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o'quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchi talabalarni, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatishga xizmat qiladi.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Shakli
1	Dunyoqarashning mohiyati, tuzilishi va asosiy funksiyalari.	Referat (glossariy tuzish, test)
2	Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo'lishi..	Referat (glossariy tuzish, test)
3	Ilk o'rta asr Sharq falsafasi va uyg'onish davri.	Esse, (glossariy tuzish, test)
4	O'rta asr Sharq falsafasi va uyg'onish davri xususiyatlari.	Taqdimot (glossariy tuzish,

		test)
5	Yangi davr Sharq tasavvufi.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
6	Falsafa va tabiiy ilmiy fanlarda borliqning mohiyatiga oid konsepsiyalar.	Test (glossariy tuzish)
7	Rivojlanishning umumiy qonunlari va kategoriyalari.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
8	Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy, intuitiv, bilish darajalarining o‘zaro aloqasi va farqi.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
9	Jamiyat taraqqiyotida tarixning mazmuni, yo‘nalishlari va konsepsiyalari.	Esse, (glossariy tuzish, test)
10	Ommaviy madaniyatning shakllanish tarixi va uning turlari: aksilmadaniyat, submadaniyat, populyar madaniyat, ekran madaniyati.	Taqdimot yoki Multimediali taqdimotlar yaratish
11	Insonni tushunishga dualizm va monizm nuqtai nazaridan yondashuv.	Referat (glossariy tuzish, test)
12	Qadriyat tushunchasining ma’nosi va uning umumiy tavsifi.	Esse, (glossariy tuzish, test)
13	Qadriyat nazariyasining shakllanish tarixi	Esse, (glossariy tuzish, test)
14	Etikaning mohiyati va ahamiyati.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
15	Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
16	Siyosatda professional etika va yangi axloq siyosati.	Referat (glossariy tuzish, test)
17	Olamni virtual va vizual estetik idrok etishning farqlari.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
18	Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot jarayonlarining mohiyati.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
19	Barqaror taraqqiyotni ta’minlashda globallashuvning ijobiy va salbiy yo‘nalishlari.	Multimediali taqdimotlar yaratish
20	Global muammolarning mezonlari va darajalari.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)

21	Pandemiya - XXI asrning global muammosi va uning oqibatlarini	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
22	Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro qonunlar va qarorlarning O'zbekistonda ratifikatsiya qilishning ahamiyati, iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiyhuquqiy mexanizmlari.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
23	Mantiq tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan sohasi sifatida.	Referat (glossariy tuzish, test)
24	Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
25	Tushuncha - predmetlarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi mantiqiy shakl.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
26	Tushunchalarni bo'lishning maqsadi va tuzilishi.	Referat (glossariy tuzish, test)
27	Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
28	Dalillash va ishonch-e'tiqodning shakllanish jarayoni.	Referat (glossariy tuzish, test)
29	O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobida rivojlanish modeli va Uchinchi renessans tushunchalari.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
30	Amaliy loyihalar: "Mening oilam – mening baxtim"; "Ustozim – hayiotim chirog'i"; "Mening mahallam – mening faxrim"; "Mahallamning olim va ziyoli insonlari"; "Mening hayot falsafam".	Multimediali taqdimotlar yaratish